Toshkent shahri bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, qayta hisoblangan, ming so‘m)

	2022 -yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	O‘sish sur’ati, % da
Toshkent shahri	**6 067,4**	**7 186,9**	**118,5**
shundan:			
Uchtepa	4 118,2	4 167,0	101,2
Bektemir	5 268,5	5 642,4	107,1
Yunusobod	7 593,5	8 673,9	114,2
Mirzo Ulug‘bek	5 813,7	6 728,1	115,7
Mirobod	7 124,2	9 169,0	128,7
Shayxontohur	6 407,0	7 318,2	114,2
Olmazor	4 941,8	5 452,6	110,3
Sergeli	5 983,7	6 741,7	112,7
Yakkasaroy	5 584,3	7 731,4	138,4
Yashnobod	5 466,4	6 639,8	121,5
Yangihayot	3 707,2	4 672,5	126,0
Chilonzor	5 793,1	6 770,5	116,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, qayta hisoblangan, ming so‘m)

	2023- yil yanvar-sentabr	Toshkent shahridagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da
Toshkent shahri	**7 186,9**	**100,0**
shu jumladan:		
Sanoat	6 250,1	87,0
Qurilish	5 778,3	80,4
Savdo	5 618,3	78,2
Tashish va saqlash	7 678,8	106,8
Axborot va aloqa	11 619,2	161,7
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	16 281,8	226,5
Ta’lim	4 889,2	68,0
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	3 552,9	49,4
Boshqa faoliyat turlari	7 748,8	107,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori darajasi moliyaviy va sug‘urta faoliyatida – 16 281,8 ming so‘m (Toshkent shahridagi o‘rtacha oylik ish haqidan 226,5 %ga), axborot va aloqa – 11 619,2 ming so‘m (161,7 % ga), tashish va saqlash – 7 678,8 ming so‘m (106,8%), boshqa faoliyat turlarida – 7 748,8 ming so‘m (107,8 % ga) tashkil etganini kuzatishimiz mumkin.

2023-yil yanvar-sentabr oylarida



Ish haqi ming so‘mda

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng past darajasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 3 552,9 ming so‘m, ta’limda 4 889,2 ming so‘m kuzatildi.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nominal hisoblangan ish haqi – ma’lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O‘rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan, bevosita tug‘uruqxonaning o‘zidan yangi tug‘ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta’tilda bo‘lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma’lum bir yoshga to‘lguniga qadar parvarish qilish bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan ayollar; ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo‘shimcha mehnat ta’tilida bo‘lganlar, shuningdek, ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta’tilda bo‘lgan xodimlarlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo‘lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o‘rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo‘lgani dan qat’iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to‘lovlar bo‘lib, ular hisoblangan summalar yig‘indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo‘linadi: ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi